

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Ne'matullayeva Fayoza

*Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich 121-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning asarlarining psixologik tavsifi berilgan. Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida obrazlarning o'ziga xos jihatlari, jumladan, hayotga muhabbat, intilish, o'limga bo'yin egmaslik, kurashchanlik kabi psixologik xususiyatga ega bo'lgan shaxslar haqida fikr yuritiladi. Adib o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri, asarlaridagi psixologik-emotsional holatlar, tuyg'ular bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega.

Kalit so'zlar: Zavq, shijoat, kayfiyat, psixika, emotsiyonal holat.

Taniqli adib Abdulla Qahhor: "Adabiyot atomdan kuchli", -deganida adashmagan. Insonga psixologik ta'sir etishning asosiy manbayi bu badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan ro'l o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbayi tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbayi orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limi, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongingin o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rinn tutadi.

Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda kohisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limi, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongingin o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u

doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rinn tutadi.

Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda ko'p. Masalan, Shukur Xolmirzayevning asarlarini shu kitoblar qatoriga qo'shishimiz mumkin. Yozuvchining ko'pgina hikoyalari hajmi kichik, lekin salmog'i katta. Masalan, "Yashil niva" hikoyasini olaylik. Hikoyada sovet imperiyasining 80-yillari aks etgan. Asarda mustabid tuzumning fuqarolar qalbiga joylagan qo'rquv urug'i qanday ayanchli oqibatlarga olib kelgani ko'rsatiladi. Avvalo shuni aytishim kerakki, biz tomonning odamlari ancha serandisha keladi. Buning tarixiy ildizlari bor: biz kattalarga, xususan, yoshi ulug'laru lavozimli shaxslarga ta'zim qilib o'rganganmiz", deb asar boshlanadi. Shu o'rinda adibning hikoya boshidanoq o'quvchini ergashtirib ketish mahoratiga qoyil qolish kerak. Hikoya muqaddimasidagi "serandisha" so'zi serjilo, serqatlamligi bilan xayolingizni olis tarixga olib ketadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da andisha so'ziga "fikr, o'ylash" deb ta'rif berilgan va bu tushunchaning uch xil ma'nosi ko'rsatilgan. Birinchi ma'nosi: ketini, oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. Ikkinci ma'nosi: umuman fikr, mulohaza. Uchinchi ma'nosi: sharm-hayo, or-nomusga amal hissi. Hikoyadagi "andisha" ortida nima bor? "Ta'zim" so'zini qo'llashdan maqsad nima edi? Asar mohiyatida shaxsni ulug'lash yotibdimi yoki unga sig'inish? Yozuvchi Shukur Xolmirzaevning mahorati shundaki, mo'jaz hikoyada "ulug' sovetlar oilasining" inqirozini, ichdan chirib ketganini inkor qilib bo'lmas darajada haqqoni tasvirlaydi: xalq bamisol qul – mehnatdan boshqa narsani bilmaydi, uning ishongan najot qal'asi ta'magirlar mahkamasiga aylangan, pul – hamma narsaning boshi, jamiyatning ziyolisi g'arib, huquq posbonlari poraxo'r... Hikoyadan olingan taassurot moddiylashib, fikrga inganida o'quvchi o'zini qo'yarga joy topa olmay qoladi: asar haqiqati nurday ko'zni qamashtiradi! Hikoya voqealarini garchi muayyan hudud miqyosida olingan, unda tasvirlangan qahramon sizga tanish ko'rinishmasin, asar mazmuniga ko'ra milliy va hududiy o'lchovlardan baland turadi. Sababi, mustabid tuzum hukmron bo'lgan imperiya hududida yashagan yuzlab millat va xalqlar, elatlarning hayotga va dunyoga qarashlari bir-biridan deyarli farq qilmagan.

Har qanday asar hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar mukammal xarakterlari, xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqealari bo'ladi, ya'ni umrboqiylik maqomiga erishadi. Shukur Xolmirzayev ana shunday maqomga erishgan hikoyalaridan biri 'Odam'dir. Yozuvchining "Odam" hikoyasida odamning butun boshli taqdiri hikoya qilinadi. Unda Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish-kechinmalari qalamga olinishi misolida o'quvchi umr va uning mazmuni haqida chuqur falsafiy mushohada yuritish imkoniga ega bo'ladi. Hikoyada Rahima sadoqatli timsoli sifatida gavdalanyadi. Rahima: «Polvon meni qulflab ketgan, kaliti o'zida», deb sovchilarini qaytishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Odamzod hayoti oxirida... so'nish oldidagi shamga o'xshar emish. Odam o'lim ostonasida birdan kuch

yig'adi ekan. Sham ham so'nish oldida birdan alanga olib yonadi-ku? Keyin so'nadi...,- ushbu jumlalar kitobxonni o'yga to'ldiradi.Zero, bu asarda hayot haqiqati aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Erkayeva. “ Shukur Xolmirzayev haqida” Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti 2001 yil
2. Н.Каримов ,”XX аср ўзбек адабиёти”, “Ўқитувчи”нашриёти
3. Sh. Xolmirzayev “ Saylanma” Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti 2003 yil.
4. Shukur Xolmirzayev.Saylanma.Qissalar.T.2019
5. <https://tafakkur.net/odam/shukur-xolmirzayev.uz>